AFG'ONISTON O'ZBEKLARI MAZORI SHARIF SHEVASIDA FONETIK JARAYONLAR

Parvin Salihi
Balx davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7825669

Annotatsiya. Ushbu maqola Afg'oniston o'zbeklarining Mazori sharifda istiqomat qiluvchi aholi shevalarining fonetik jarayonlarini ilmiy asosda assimilatsiya hodisasi tadqiqiga bag'ishlangan. Albata maqolada dastlabki namunalarini berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Assimilatsiya, Dissimilatsiya, Reduksiya, kombinator, pozitsion.

Abstract. This article is devoted to the study of the phenomenon of assimilation of the phonetic processes of the dialects of the population of the Afghan Uzbeks living in Mazori Sharif on a scientific basis. Of course, the article tried to give the first samples.

Key words: assimilation, dissimilation, reduction, combinator, positional.

Kirish

Assimilatsiya: Assimilatsiya lotin tilidagi "assimilara" so'zidan olingan bo'lib, o'xshatib olish demakdir. Tovush moslashishi to'liq va to'liqsiz bo'lishi mumkin. Tovush moslashishi to'liq *(yoz + sin = yossin)* yoki qisman *(yoq + sa = yoxsa, tanbur – tambur)* moslashish bo'ladi[7].

Mazori sharif shevasida ham assimilatsiya hodisasi mavjud bo'lib, uni atroflicha yoritish lozim bo'ladi. Rus tilida undosh tovushlarning bir qancha xususiyatlarini, jumladan: yon tovushlari ta'sirida yumshashi, jarangli, jarangsiz tovushlarga o'tishi kabilarni assimilatsiya hisoblab, uning turli xillari ko'rsatiladi[8].

1- Odatda assimilatsiya unli va undoshlar tizimida baravar qayd qilinadi, lekin ko'proq undoshlar bilan bog'liq fonetik qonundir. Uning prograssiv va regressiv, to'liq va to'liqsiz assimilatsiya turlari bor.

Progressiv assimilatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga singdirsa, regressiv assimilatsiyada keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi[9].

Mazkur forma (AB>AA) asosan so'z o'zaklariga qo'shimchalar qo'shilganda vujudga keladi. Mazori sharif shevasida, ayniqsa progressiv to'liq assimilatsiya ko'p uchraydi: vb>bb: tovba (tavba), vn>vv: birovvi (birovni), jn >jj: gräräjti (grajni), g'n

[7] Mengliyev B. Ona tili. – Toshkent, 2015. – B. 60.
[8] Abdullayeva D. O'zbek tili oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. – Toshkent: 1999. – B. 107.
[9] Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodira begim nashriyoti. 2021. – B. 43.

> g'g': bog'g'i (bog'ni), zn>zz: bïzï (bïznï), yn>yy: öyyï (uyni), mb>mm: dömmä (dumba), shi>shsh: gushti (gushtni) va boshqalar[10].

Tavba dep ʒatma, äytganimdi qïyïn. Bïravdï balasïnï nïma munča azar beräsän. Bäsïr xan mutardï gäraʒtï astïya quyiŋ. Baramdï qozïsï semisliktän dummäsini kötärälmäj qaptï. xuʒäjin gushtï kelusi qänčä.

Hamda progressiv moslashishda oldingi tovush keyingi tovushni o'xshatib oladi[11]. Masalan, otdan-attan, ishdan-ištän, qatiqdan-qatïqtan, sarakdan-säräktän, salod-salat va boshqalar.

*Mudïr sajïp **ištän** nečä bäʒä keläsis, sïsga getij išim bar. Čupan **attan** bïr xäbär apke qänä avqatʒïjäjäppa. Apa bïr älämiš **qatïqtan** qänčä ʒav tušädï. Patïma säräktän balalärïŋdï ʒïjïp al. Qïzïm gettij salat qïp ke ʒïjïk.*

Progressiv assimatsiya: bunda oldin kelgan tovush ta'sir etib, keyingi tovushni o'ziga o'xshatadi. Masalan, ketdi-*ketti*, aytdi-*äjtti*, yotdi-ʒattï, qaratdi- *qärätti*, yig'latdi-*ʒïlättï,* ko'rsatdi-*körsättï* va boshqalar.

*Tayam bazar **kettimä**. Singä bï gäplär kem **äjtti**. Atam ʒanyä ištän kep **ʒattï**, turkeldï äjtämän. Bu balanï kem ʒïlättï. Bïsdï ujdiï singä kem körsättï.*

2- Regressiv assimilatsiyada qo'shimcha o'zak morfima va o'zakka qo'shimchalar qo'shilganda hamda sandhy holatda yuzaga keladi: a) assimilatsiyaga uchramasdan avalgi undoshlar paydo bo'lishi o'rin jihatdan o'zgarmaydi: dsh>shsh poshsha (podshoh), es>ss: yossä (yozsa), sössïs (so'zsiz), tussïs (to'zsiz), ts>ss: assä (atsa), ʒassa (yotsa) kabi [12]holatlarni o'z ichiga oladi.

*ʒamal **paššanïka** baryïn yïz ser buyday tartïp berädi apkeläsän. Patïmq bïgïn axšam qazanïŋ **tussïs** böptï. Ämät bajdï äjtiŋ enäk **assa** min kättä engïmdi sataman. Mäjdä bäčälär **ʒassa** ʒaj täjläp ber ʒatsïn.*

Regressiv moslashishda esa oldingi tovush keyingi tovushni o'xshatib oladi[13]: masalan, shanba-*šämbä*, ichsa-*išsä*, oqshom-*axšam,* uch-*uš*, kech-keš kabi.

*Äkä sïs baraberiŋ min ketiŋisdän **šämbä** kun baraman. Ullim davandï ʒïllï suvmïnan **išsäŋ** bölädï. näʒip **uš** kečädän biri qäqä dalïp ketniŋ. Baj baba axdam bïsdïka keliŋ, getij nan qïptï. Min därstän **axšam** čïyämän, sin ketäbär. ʒeriŋ **keš** böptï ketämis. Čalaptï tussïs qïpsaŋ ukam.*

Yoki boshqa ibora bilan aytganda *regressiv assimilatsiya:* keyingi tovushning ta'siri bilan oldingi tovushda o'zgarish ro'y beradi. Masalan: *pochta – po'šta, maqtanchoq – maxančaq, uchta – ušta* kabi.

*Namïxuda qïzïŋïs qänčä **maxtančaq** böptï. Bïgïn ämät baj **ušta** qoj aldi. Min elgäri bazar **ušta** savlïgtï utïsmïŋ aldïm.*

[10] Abdullayeva D. O'zbek tili oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. – Toshkent: 1999. – B. 110.
[11] Mengliyev B. Ona tili. – Toshkent, 2015. – B. 61.
[12] Abdullayeva D. O'zbek tili oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. – Toshkent, 1999. – 112 bet.
[13] Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodira begim nashriyoti, 2021.

To'liq assimilatsiya. Bu hodisa ikki har xil, ayrim vaqtlarda ikki bir xil tovushlar(ab yoki aa)ning boshqa tildagi bir xil tovushlar (cc)ga o'tishi natijasida sodir bo'ladi va ko'pincha o'zakka qo'shimchalar qo'shilishi tufayli yuzaga keladi[14]: ab>cc> rg>ll: billä (birga), AA>CC:dd>tt: qanttän (qantdan), qästtän (qastdan), bn>pp: kitappi (kitobni).

Sin barar min šäpiqmïnän ***billä*** *baraman. Ämättï kitappï qärdä, tavïp ber. memman äkä qanttänäm alïŋïslar. Bïgïn* ***qästtän*** *özïm barmadtm.*

To'liq assimilatsiyada. O'zaro bir-biriga singib ketadigan tovushlar tushiniladi. Masalan, oldi~*alli*, keldi~*kelli,* qoldi~ *qallï,* bo'ldi~*belli* va boshqalar. shunga ko'ra mazori sharifning atrof-muhitidagi qarluq vakillarining shevasi assimilatsiyani xuddi shu turiga mos keladi.

Apa min ämättän qäjsi nirsä yuvaraman ***allïŋ****. Bäsïr Ʒan äzïr* ***kelli****.* ***Belli*** *min bir soatdan suŋ baraman.*

To'liqsiz assimilatsiyada, tovushlar aynan bir-biriga singmaydi, balki jarangli-jarangsizlik va boshqa holatlariga (artikulatsiyasi yaqinligi) ko'ra qisman o'xshab, ketishi mumkin: oshgan~ *äškän*, ishga~*iškä*, ketgan ~ ketkän, qusgan~ *quskän*, kesgan~*keskän*, bosgan~ *baskän*, jotgan~*Ʒatkän,* yetgan~*Ʒitkän kabi.*

Atam azïr ketti šï väx mätäptän ***aškan****. Nemät häkim äkäŋdi äjt ertän iškä yarï bersin. Ʒeriŋär bïsdïkï keskän aš qïptï, aš ïčämïs. Šäpïq atasï baskän ezdi sinäm bastïŋ. Alï bï väx hämmä uxläp jatkan, kejinraγ baramïs. Šaiat mïna šï väx atamalar Ʒetkän bösa.*

Shuningdek, boshqa iboraga ko'ra, murakkab to'liqsiz assimilatsiyada ikkita har xil undosh bir-biriga o'xshamagan xil undosh tovushlarga almashadi va ko'pincha o'zaklarga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida vujudga keladi: bd>pt: mättäptän (maktabdan), čd>št: qaštï (qochdi), čn>št: hištïmä (hich nima), qd>xt: tïxtï (tiqdi).

Qïzïm ***mätäptän*** *čïxtïn tesräγ ke. Ämät bïgïn därstän* ***qaštï****. Bäsïr qaγan nandï kïstäsïγa* ***tïxtï.***

Dissimilatsiya. So'zdagi bir xil yoki bir-biriga qisman o'xshash tovushlardan birining artikulatsiyon (aniq talaffuz qilish) jihatdan farq qiladigan boshqa tovush tomon o'zgarishi dissimilatsiya hodisasidir. Dissimilatsiya juda kam uchraydigan fonetik hodisa bo'lib, ko'proq sonor tovushlarda sodir bo'ladi[15].

So'z tarkibidagi undoshlarning boshqa tovush ta'sirsiz tovush variantiga ega bo'lishi dissimilatsiyadir[16]: zarur- *zarïl*, devor-*devāl*, qimat- *qï:mät* kabi.

Baj äkä bïgïn mutärïŋïdï berip turïŋ, köp ***zarïl*** *išim bar. Usta äkä bïgïn laj qïläjïk gettij* ***devāl*** *örïp berïŋ. Bïgïn buγdaj köp* ***qï:mät*** *ekän.*

[14] Abdullayeva D. O'zbek tili oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. – Toshkent, 1999. – 112 bet.
[15] Abdullayeva D. O'zbek tili oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. – Toshkent, 1999. – 113 bet.
[16] Ashirboyev S. O'zbek diyaliktologiyasi. – Toshkent: Nodira begim nashriyoti, 2021. – B. 43.

Boshqa ibora bilan aytganda, dissimilatsiya lotincha disimilate so'zidan olingan bo'lib noo'xshashlik degan ma'noni beldiradi. Bu fonetik hodisada tovushning ta'siri natijasida noo'xshash tovush talaffuz qilinadi. Tovush noo'xshashligi hodisasi ham ikki xil bo'ladi:

a) proressiv noo'xshashlik: oldingi tovush ta'sirida keyingi tovush paydo bo'lish o'rni va usulini o'zgartiradi va tovushning sifatida o'zgarish – noo'xshashlik yuzaga keladi. Masalan: zarur – *zaril,* zarar – *zalal, birorta – birantä,* madad – *madat,* masjid-*mäčit*, kabob – *kabap,* qasob-*qasap,* savob-*savap,* rubob – *rubap* kabi.

*Äkä beš xurak **kabap** qujiŋ meman keldi. balam qudytan bïr buška suv ap bergin **savap** bölädï. Birantä šär barabersä mini xäbär qïyïn išim bar. Haʒï äkä ʒeriŋ mäčikä baramïs. Ämät xan ʒamal qasaptï alïya baryïn ikki keli guš berädi ap keläsän.*

b) regressiv noo'xshashlik: keyingi tovushning ta'siri bilan oldingi tovushda o'zgarish ro'y beradi[17]. Masalan: *pochta – po'shta, maqtanchoq – maxtačaq, uchta – ušta,* kachmushtak- *käšmištäk* kabi.

*Xalït samanxananï körgïn bïr **käšmištäk** yäyäč bar šünï apke. Ertän bazar buydaj aparsängïs mini uš buʒï buydaj qušäman satïp kelin.*

Metateza. U so'z tarkibidagi undoshlarning almashishidir[18]: qumursqa~ qurmursqa va boshqalar.

Shuningdek, mazori sharif shevasi vakillarining nutqida shunday so'zlarni uchratdikki ular assimilatsiyaning metateza turiga sedq qiladi: tupraq ~ turpaq, kïrpïk~kïprïk, bujra~burja, äjländim ~ äjnäldim, ahval ~ avhal, yamyïr~ yaymïr, töyrädï ~ töryädï va boshqalar. Quyida mazkur so'zlar gapda qo'llanilishi shevadan misollar bilan ko'rsatiladi:

*Bäčälärdi äjtgin häjatädän gittij **turpay** tašïsïn ertän laj qïlämïs. Qïzïm nïma mïnča **kïrpïgïŋ** tugïlïp ketipti. xuʒäjtn **bujra** nečä pul. Usta äkä šu tamya nečä **bujra** asak ʒïtädï. Baj äkä bïr **avhalï**ŋïsdï alaj dep keldim.*

Metateza so'zlardagi yonma-yon harf va tovushlarni ixtiyorsiz ravishda oldin-keyin qilib, almashtirib talaffuz qilishdir[19]. Supirgi ~ šïprkï, chappa~čppa, chiltor~ čïltr va boshqalar.

*Ämät ʒan ujdin **šïprkï**nï apke. Nandï **čppa** qolïŋmïnan ʒijmä. Bäsirä uydin mini **čïltarmdï** apke.*

Sandhi. Bunda ikki so'zning talaffuzi jarayonida oldingi so'z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlovchi so'zdagi) tovushga qisman moslashadi: menga ber ~ *mïyamber*, hayron bo'ldim ~ *häjrāmbollïm* yoki dastlabki so'zning oxirgi tovushi

[17] Mingliyev B. Ona tili. – Toshkent, 2015. – B. 61.
[18] Ashirboyev S. O'zbek dialiktologiyasi. – Toshkent: Nodira begim nashriyoti, 2021. – B. 43.
[19] Abdullayeva D. O'zbek tili oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. – Toshkent, 1999. – B. 114.

(keyingi so'z unli bilan boshlansa) jaranglashadi*:* bo'lak odam ~*bölägadam,* kerak edi ~*kerägidi*.

Pärïtxan sin barmasaŋ ***bölägadamdï*** *köräj, bïgïndan qamastn apparïp bersin. Ämättän bašqa* ***bölägadamkim*** *bar. šu baltalarïŋdï apkep bersäŋ mingä* ***kerägidi****.*

Spirantizatsiya. Nutq jarayonida portlovchi tovushning sirg'alovchi variantiga ega bo'lishini sipratizatsiya deyiladi [20] : *yubordi ~ ʒüvärdi, yuqoldi~ʒuγaldï, yïrtïldï~ʒïrtïldï* (qipchoq shevasida). Ammo mazori sharifdagi qarluq shevasi vakillarining nutqida ham ushbu hodisa ko'zga uchraydi: sabr qïl ~*savïr qïl*, gapi~*gäpï*, surabti~s*urattï*.

Baba savïr qïp turïŋ min keläapmän. Atam axšamdan biri sïzdï surattï. Appa bemalal kelevariŋ hiš gäpï ʒöy, uy özïŋtsdïkï.

Spontan o'zgarishlar (jaranglashish). U biror tovush ta'sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi: suyak ~ *sujäg,* qarg'a ~ *qärγä*, sariq ~ *sarï*, qora ~ *qärä*, qobug'~*qabïy,* sovuq ~suvïγ, issiq~ ïssïγ, yilqi ~ ʒïlqï, yulduz~ ʒïldïs, yo'l~ ʒöl, yumurtqa~ ʒumurtqa, yilka~ ʒïlka va boshqalar (mazori sharif qipchoq shevasi).

Därsäxadi ustïdan ***sujäglärdï*** *ʒïjïp ayïn. Ertäminän* ***qärγä*** *nïmä mïnčä qayïlläp qaldï. Apaŋ älämiš piškän bösa gitij* ***sarï*** *ʒav apke ʒijïk. Teräkti* ***qabïylärïn****ï ʒijïp ayïn otïn bölädï. Bïgïn hava köp* ***suvïy*** *böptï. Bïxarïnï ʒaqqïn tam* ***ïssïy*** *böstn köp suqqa qattïm. Asmanγa* ***ʒïldïs*** *čïyïptï ertän attap čïyädï. Mïnäbï kuča kättä ʒülγä čïyäma. Patïma äkäŋä ikkitä* ***ʒumïrtqa*** *qatïrïp ber. ullïm* ***ʒïlkäŋdï*** *kötärïp ötïr.*

Reduksiya. So'z tarkibida ayrim tovushlar pozitsiyasining kuchsizlanishidir: kishi ~ *k (i)š(i),* katta ber ~ *ket (i) vär*, sharif ~ *šär(i)p. Bashir ~ bashir ~ b(a)š(i)r* va boshqalar*:*

Atasï bïgïn pešïngä nečä ***kïšï*** *kelädi, šunga qäräp gurïč täjläj. Sin* ***ketävär*** *min ketiŋdän kelämän.* ***Šärïp*** *äkä axdam qäqä ketbidiŋis, uyiŋïsga bardïm ʒöyakan sïs.* ***Bäšïr*** *äkä keliŋ ixtilāt qïp ötïrämïs.*

Eliziya. Tovush tushishi bo'lib, ikki ko'rinishga ega, ya'ni ikki tovushni tushib qolishi[21]: bora oldi ~ barāldï (a), ko'ra oldi ~ körāldï(ä), kela qoldi~kelāldi (a) va so'z tarkibidagi pozitsiya kuchsizlangan undoshning tushib qolishidir: suppurgi ~ *šïpïkï*, issiq ~ *ïsïy*, katta~kätä va boshqalar.

Ämät töjγa ***barāldï*** *ma. mäʒïtti qäčān* ***körāldïŋ****. ujdin* ***šïpïrkïnï*** *apkep däräxtï astïnï šïpïrïp gïlämdï tušägïn ötïrämïs. Nečä kundan biri häva köp* ***ïsïy*** *böptï.*

Sinerezis. Ikkilamchi cho'ziqlik sinerezisga olib keladi. Ma'lumki intervokal pozitsiyadagi undoshning nutqda iqtisodga uchrashi natijasida yonma-yon kelib qolgan ikki unli o'zaro singishib, nutqda cho'ziq unlini hosil qiladi. Bu fanda

[20] Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodira begim nashriyoti, 2021. – B. 43.
[21] Ashirboyev S. O'zbek dialiktologiyasi. – Toshkent: Nodira begim nashriyoti, 2021. – B. 43.

sinerizis hodisasi deyiladi. Shevalarimizda bunga misollar ko'plab topiladi: zahar ~ za:r, shahr~ ša:r, o'g'il~ u:l, sihat~sia:t, zarur ~ zär:l, shamol~ šäma:l va boshqalar.

Mïnäbï aštï ʒïjïp aγïn **zä:rdij** ačï ekän. Birdän **ša:rγäča** qänčä ʒöl bar. **Ullïm** ujdin beldi apke hävsgä suv qujämïs. **Sia:tiŋis** jäxši mä äkä. Mutärïŋïsdï berip turïŋ köp **zär:l** böptï.

Uchlamchi (empatik) cho'ziqlik. Bunday cho'ziqlik namangan shar shevasining hozirgi-kelasi zamon fe'lida yorqin ko'rinadi, ya'ni bu fe'l shaklida qatnashadigan ravishdosh ko'rsatkichi a va boshqa shakllada ishtirok etgan **a** unlisi odatdagiga nisbatan cho'ziq talaffuz qilinadi yoki uning bo'lishsiz shaklida **j** undoshi tushib qolishi mumkin va bo'lishislik affiksdagi **a** unlisi ham ikkilangan cho'ziqlikka ega bo'ladi: bilmayman~ ***bi:lmä:: (j)mä::n,*** bo'lmaydi~***bomä:: (j)di***, men aytmayman ~ mä: ätmä:: (j)mä, sen bilmaysan ~ ***sä: bi:lmä:: (j)sä:*** ushbu hodisa mazori sharif shevasida ham ko'zga uchraydi: bilmayman~ *bi:lmä: (j)mä:n*, kelmayman~ *ke:lmä:: (j)mä:n,* min qolmayman~*mä:qa:lmä: (j)mä:n*, sen bilmaysan~ *sä: bi:lmä:: (j)sä:n*.

Tovush mosligi. O'zbek shevalaridagi so'zlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslaganda, shunday fonetik holatlar ko'zga tashlanadiki, bir so'z ayni ma'nosini saqlagan holda ulardagi ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin bu o'zgarish so'z ma'nosiga putur yetkizmaydi[22]: do'ppi ~ *toppï*, kel~ *gäl*, yo'l~ *ʒol* va boshqalar. shuningdek so'zlar Mazori sharif shevasi vakillarining nutqida ham ko'p uchraydi: yo'l~*ʒol*, yilqi~ *ʒïlqï*, yilon~*ʒïlan*, choy~*čaj*, bedana~ *bödänä*, issiq~*ïssïγ*, yilka~ *ʒïlka*, do'ppi~*toppï*. Bu kabi so'zlardagi j//ʒ, q//γ, e//ö, a//ä, d//t undoshlari mosligi namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ABDULLAYEVA D. O'ZBEK OSHOBA SHEVASINING FONETIK XUSUSIYATLARI. – TOSHKENT: 1999.
2. Ahmad, Amini Aziz. "THE INTERPRETATION OF AGRICULTURAL WORDS IN" BABURNAMA"." INTERPRETATION 7.12 (2021).
3. ASHIRBOYEV S. O'ZBEK TILI DIALIKTOLOGIYASI. – TOSHKENT: NODIRA BEGIM NASHRIYOTI, 2021.
4. Nadim M. H. ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 6. – С. 490-492.
5. DADABOYEV H., XOLMONOVA Z. TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASI. – TOSHKENT: ILM ZIYO NASHRIYOT UYI, 2015.

[22] Ashirboyev S. O'zbek dialiktologiyasi. – Toshkent: Nodira begim nashriyoti, 2021. – B. 46.

6. ISHONCH Z. HOZIRGI O‘ZBEK TILI GRAMMARI: KONODO, QADIM XUROSON NASHRIYOTI, 2013.

7. MENGLIYEV B. ONA TILI. – TOSHKENT: 2015.

8. Надим M. X. SHIMOLIY AFG ‘ONISTON O ‘ZBEKLARI ETNOGRAFIK LEKSIKASI O ‘ZIGA XOSLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 3.

9. MURODOVA N. O‘ZBEK TILI DIALIKTOLOGIYASI. – TOSHKENT.

10. Choriyeva, Charos Salomovna. "RELIGIOUS LEXICAL UNITS DEFINING PERSONAL NOUNS IN UZBEK DICTIONARIES." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.12 (2022): 1022-1025.

11. Надим M. X. SHIMOLIY AFG‘ONISTON O‘ZBEKLARI ETNOGRAFIK LEKSIKASI O ‘ZIGA XOSLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 3.